



ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRIDA MILLIY VA GLOBAL SAN'AT
TAMOIYLLARINING UYG'UNLASHUVI

Tursunaliyeva Ruzigul Xolmirzaevna

"Zomin" sanatoriysi MCHJ Ma'naviyat va Ma'rifat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek teatrida milliy va global san'at tamoyillarining uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Unda milliy dramaturgiya, xalqona ijro an'analari va teatrning tarixiy ildizlari global teatr maktablarining tajribasi bilan qanday sintez qilinayotgani yoritilgan va musiqali teatr, qo'g'irchoq teatri hamda teatrlashgan ommaviy tomoshalar misolida milliylikning saqlanishi va zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi ko'rsatib beriladi. Teatr san'atining estetik, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalari, uning xalqaro madaniy muloqotdagi o'rni alohida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'zbek teatri, milliy dramaturgiya, global san'at tamoyillari, musiqali teatr, qo'g'irchoq teatri, estetik tarbiya, xalqaro madaniy muloqot.

KIRISH

O'zbek teatr san'ati xalqning ma'naviy hayotida alohida o'rin egallab kelgan. Teatr qadimiy davrlardan boshlab jamiyatni tarbiyalash, ijtimoiy ongni shakllantirish va badiiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. XX asrning boshlaridan milliy teatr shakllanib, o'zbek dramaturgiyasi va aktyorlik maktabining yuksalishi milliy madaniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi globallashtirish davrida esa teatr san'ati milliy an'analarni asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy jahon tajribasi va tamoyillarini o'zlashtirish orqali rivojlanmoqda¹.

Milliy teatr maktabi o'zining badiiy-estetik tamoyillari bilan ajralib tursa-da, uning rivojlanishida xalqaro san'at tendensiyalarining ta'siri sezilarli. Masalan, rejissura, dramaturgiya va sahna texnologiyalarida jahon teatr maktablari yutuqlaridan foydalanish jarayoni kuchaymoqda. Biroq bu ta'sir milliylikni so'ndirmaydi, balki yangi shakl va uslublar orqali uni boyitadi. Milliy qadriyatlarning teatr sahnasida global san'at bilan uyg'unlashuvi, bir tomondan, o'zbek teatrlarini xalqaro miqyosda tanitadi, ikkinchi tomondan, tomoshabinda zamonaviy estetik didni shakllantiradi².

O'zbekiston mustaqillikdan keyingi davrda teatr san'atiga katta e'tibor qaratildi. Davlat siyosatida teatrlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, repertuarni boyitish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Teatr festivallari, ijodiy safarlar va xorijiy teatrlar bilan hamkorlik dasturlari milliy teatr maktabining global maydonga chiqishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, yosh dramaturglar va rejissyorlar asarlarida jahon tajribasidan olingan usullar milliy ruh bilan uyg'unlashmoqda. Bu esa teatr sahnasida turli madaniyatlarning sintezi va o'ziga xos milliy teatr estetikasini shakllantirishga olib kelmoqda³.

¹ Karimov H. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 280 b.

² Qodirov A. Zamonaviy teatr san'ati va ijtimoiy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 224 b.

³ Xudoyberdiyeva M. O'zbek teatrida milliy va jahon dramaturgiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.



Bugungi kunda o'zbek teatrida milliy va global tamoyillarning uyg'unlashuvi nafaqat ijodiy, balki ijtimoiy-ma'naviy jarayon sifatida ham qaralmoqda. Bu jarayon xalqning o'zlikni anglashida, madaniy merosni qadrlashida, shu bilan birga dunyo san'at jarayonlariga integratsiyalashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Teatr san'ati milliy an'analarning davomchisi bo'lish bilan birga, global san'atning yangicha yondashuvlarini sintez qilish orqali o'zbek madaniyatining zamonaviy qiyofasini belgilamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek teatr san'ati rivojida milliy va global tamoyillarning uyg'unlashuvi masalasi bir qator dissertatsion izlanishlarda keng tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda teatrning turli yo'nalishlari - qo'g'irchoq teatridan tortib musiqali teatr va ommaviy bayram tomoshalarigacha bo'lgan qirralar yoritilib, milliy an'analar bilan zamonaviy uslublarning uyg'unlashuvi ilmiy asosda ochib beriladi.

B. Mamatqulov o'z ishida qo'g'irchoq teatrining yaratilish jarayonlarini, uning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganadi. U milliy qo'g'irchoqchilik an'analari sahna texnologiyalari va global teatr tamoyillari bilan uyg'unlashtirish orqali yangi badiiy shakllar paydo bo'lishini asoslaydi⁴.

X. Oxundedayev esa Farg'ona vodiysida o'tkaziladigan teatrlashgan ommaviy bayram tomoshalarini tahlil qilib, ularning ssenografik xususiyatlarini yoritadi. Uning izlanishlarida an'anaviy bayramlar teatr sahnasiga xos estetik elementlar bilan uyg'unlashgani, xalqning madaniy merosini jonlantirishda badiiy vositalar keng qo'llangani ko'rsatib beriladi⁵.

Ch. Raximova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa Farg'ona viloyati teatrlarida milliy dramaturgiya asarlarining sahna talqinlari o'rganilgan. 1991–2021 yillarda yaratilgan spektakllarda dramaturgik asarlarning milliy ruhini saqlab qolish bilan birga, global teatr rejissura yondashuvlari ham joriy qilinganini qayd etadi⁶.

K. Umarovning ilmiy ishlari zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rnini keng qamrovda ochib beradi. U teatrni jamiyatdagi estetik va tarbiyaviy funksiyalari bilan bir qatorda, madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham tahlil qiladi. Tadqiqotda milliy teatrning jahon maydoniga chiqishi, boshqa teatr maktablari bilan o'zaro ta'siri alohida ko'rsatib berilgan⁷.

Z. Xudayarovanning dissertatsiyasi musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining ahamiyatini yoritadi. U milliy musiqiy meros, xalq qo'shiqlari va raqs an'analari aktyorlik maktabida qanday singdirilishini, global musiqali teatr yutuqlari bilan uyg'unlashuvini tahlil qiladi. Bu orqali milliy aktyorlik maktabining o'ziga xos estetik ko'rinishi ochib beriladi⁸.

⁴ Mamatqulov B. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari: Avtoreferat. – Toshkent, 2025.: <https://library.ziynet.uz>

⁵ Oxundedayev X. Farg'ona vodiysi teatrlashgan ommaviy bayram tomoshalar ssenografiyasi: Avtoreferat. – Toshkent, 2025

⁶ Raximova Ch. Farg'ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqinlari (1991–2021-yy.): Avtoreferat. – Toshkent, 2025. <https://library.ziynet.uz>

⁷ Umarov K. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rne (1991–2023-yy.): Avtoreferat. – Toshkent, 2025.: <https://library.ziynet.uz>

⁸ Xudayarova Z. O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rne: Avtoreferat. – Toshkent, 2025. <https://api.ziynet.uz>



G. Bekmuratovanning qoraqalpoq musiqiy teatriga bag'ishlangan ishida esa musiqiy madaniyatning evolyutsion bosqichlari o'rganilib, milliy san'at shakllari bilan zamonaviy teatr jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asoslangan. U musiqali teatrda xalq an'analari va global teatr estetikasining uyg'unligi natijasida yangi badiiy shakllar yuzaga kelayotganini ta'kidlaydi⁹.

Mazkur tahlilqilingan ilmiy manbalar hamda adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek teatrida milliy va global san'at tamoyillari nafaqat ijodiy sintez, balki madaniy identitetni saqlash, estetik tarbiya berish va xalqaro maydonga chiqishning ham muhim vositasi sifatida ko'rilmogda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbek teatrida milliy va global tamoyillarning uyg'unlashuvini o'rganishda, avvalo, teatrlarning amaliy faoliyati, repertuar tanlovi, sahna ijodkorlari ishi va tomoshabinlar qabul qilishi chuqur tahlil qilingan. Turli yillarda sahnalashtirilgan spektakllar kuzatilib, ularning dramaturgiya, rejissura va aktyorlik jihatlari o'rganilgan. Bu jarayonda milliy dramaturglarning asarlari bilan bir qatorda jahon adabiyoti namunalaridan ham foydalanilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi teatrlar faoliyatida mahalliy mualliflarning asarlari xalqona ruhda talqin etilar ekan, klassik jahon dramaturgiyasi namunalarida zamonaviy rejissura uslublari keng qo'llangan.

Milliy teatr maktablarida qo'g'irchoq teatri alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda qo'g'irchoqlarni tayyorlash texnologiyalari va ularning sahnadagi ifodaviy imkoniyatlari o'rganilgan. An'anaviy materiallar asosida yaratilgan qo'g'irchoqlar milliy qadriyatlarni ifodalasa, yangi texnologiyalar asosida yaratilgan qo'g'irchoqlar global teatr tajribasidan kirib kelgan sahna effektlari bilan uyg'unlashadi.

Musiqali teatr sohasida esa aktyorlik san'atining shakllanishi xalq ijodiyotiga tayanishi bilan birga, jahon musiqali teatr maktablaridan ham ilhom olgani kuzatiladi. Milliy qo'shiqlar, dostonlar va raqslar musiqali spektakllarda o'z o'rnini topadi, ammo ular zamonaviy kompozitsiya va sahna texnologiyalari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa tomoshabin ongida milliylik va zamonaviylikning bir butun badiiy ko'rinishini yaratadi.

Qoraqalpoq teatrlari tajribasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu hududda musiqiy madaniyat va teatr san'ati taraqqiyoti bosqichma-bosqich kuzatilib, global san'at oqimlari bilan uyg'unlashuvi tahlil qilingan. Sahna ijodkorlari milliy ohanglar va an'anaviy uslublarni saqlagan holda, zamonaviy teatr estetikasiga xos shakllarni ijodiy o'zlashtirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Zamonaviy o'zbek teatrida milliy va global san'at tamoyillarining uyg'unlashuvi ko'plab yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Avvalo, milliy dramaturg asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar o'zida xalqona ruh, tarixiy qadriyatlar va milliy mentalitetni saqlab qoladi. Shu bilan birga, ularning rejissura va sahna talqinida jahon teatr maktablarining yutuqlari, jumladan, yangi sahna texnologiyalari, aktyorlik maktablarining zamonaviy yondashuvlari va dramaturgik yechimlar qo'llanmoqda. Natijada spektakllarda milliylik va zamonaviylikning bir butun badiiy sintezi yuzaga kelmoqda.

⁹ Bekmuratova G. Qoraqalpoq musiqa madaniyatidagi evolyutsion jarayonlar (musiqali teatr taraqqiyotida): Avtoreferat. – Toshkent, 2025.



Qo'g'irchoq teatri misolida bu uyg'unlik yaqqol ko'rinadi. An'anaviy materiallardan yaratilgan qo'g'irchoqlar xalqona estetikani ifodalaydi, biroq ularning sahnadagi harakati va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishda zamonaviy texnologik vositalar, yoritish va ovoz effektlari qo'llanadi. Bu esa qo'g'irchoq teatrini bolalar tarbiyasi uchun milliy qadriyatlarni singdiruvchi vosita bo'lishi bilan birga, zamonaviy vizual san'atning ham bir shakliga aylantiradi.

Teatrlashgan ommaviy bayram tomoshalarida ham xuddi shunday sintez kuzatiladi. Milliy urf-odatlar, xalqona raqs va qo'shiqlar an'anaviy sahna obrazlarini yaratishda asosiy manba bo'lsa, dekoratsiya va sahna ssenografiyasida global teatr estetikasi unsurlari – yorug'lik texnologiyalari, videoproektsiyalar va sahna effektlari qo'llanmoqda. Natijada tomoshalar xalqona ruhni saqlagan holda, zamonaviy teatr estetikasi bilan uyg'unlashadi.

Musiqali teatrdan esa milliy qo'shiqlar, dostonlar va raqslar asosiy badiiy zaminni tashkil etsada, ularning kompozitsiyasi jahon musiqali teatrining yutuqlari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bu jarayon aktyorlik maktabini boyitib, ijrochilik san'atiga yangi sifatlar olib kirmoqda. Tomoshabinlar bunday spektakllarda milliy ohang va global sahna ifodasini bir vaqtda his etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Farg'ona viloyati teatrlarida kuzatilgan jarayonlar ham milliy dramaturgiya va global yondashuvlarning uyg'unlashuvini ko'rsatadi. Mahalliy mualliflarning asarlari xalqona ruhni saqlagan holda qo'yilsa, ularning sahna talqinida jahon rejissura maktablariga xos uslublarni qo'llanadi. Shu tarzda milliy dramaturgiya yangi badiiy shakllarda talqin etilib, tomoshabin ongida zamonaviy teatrning o'ziga xos qiyofasi yaratilmoqda.

Qoraqalpoq teatrlarining tajribasi ham bu sintezni mustahkamlaydi. Bu hududda musiqiy madaniyatning o'ziga xos unsurlari global teatr estetikasining yangi shakllari bilan uyg'unlashib, milliy teatrning o'ziga xos rivojlanish modeli yuzaga kelmoqda.

XULOSA

Milliy dramaturgiya, xalqona obrazlar va an'anaviy ijro uslublari saqlanib qolgan holda, ularning sahna talqinida jahon teatr maktablari tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon bir tomondan teatrning milliylik asoslarini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan tomoshabin didini global estetik qadriyatlarga ochib beradi. Musiqali teatr, qo'g'irchoq teatri, teatrlashgan ommaviy tomoshalar va zamonaviy spektakllar misolida ko'rinadiki, milliy an'analar va xalq ijodiyoti o'zbek teatrining ildizi sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, sahna texnologiyalari, rejissura uslublari va estetik vositalarda global teatr yutuqlari sintez qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek teatrining bugungi qiyofasi milliy va jahoniy qadriyatlarning uyg'unlashuviga asoslangan holda shakllanmoqda. Bu sintez teatr san'atini nafaqat madaniy merosni saqlovchi, balki xalqaro madaniy muloqotning faol ishtirokchisiga aylantirib, o'zbek madaniyatining zamonaviy qiyofasini belgilab bermoqda.

ADABIYOTLAR:

Karimov H. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 280 b.



Qodirov A. Zamonaviy teatr san'ati va ijtimoiy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 224 b.

Xudoyberdiyeva M. O'zbek teatrida milliy va jahon dramaturgiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.

Mamatqulov B. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari: Avtoreferat. – Toshkent, 2025.: <https://library.ziyonet.uz>

Oxundedayev X. Farg'ona vodiysi teatrlashgan ommaviy bayram tomoshalar ssenografiyasi: Avtoreferat. – Toshkent, 2025

Raximova Ch. Farg'ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqinlari (1991–2021-yy.): Avtoreferat. – Toshkent, 2025: <https://library.ziyonet.uz>

Umarov K. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rni (1991–2023-yy.): Avtoreferat. – Toshkent, 2025: <https://library.ziyonet.uz>

Xudayarova Z. O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rni: Avtoreferat. – Toshkent, 2025: <https://api.ziyonet.uz>

Bekmuratova G. Qoraqalpoq musiqa madaniyatidagi evolyutsion jarayonlar (musiqali teatr taraqqiyotida): Avtoreferat. – Toshkent, 2025.